

**Boshlang'ich sinflarda musiqa madaniyati darslarini o'qitishning metodlari****Po'latjonova Intizora Nazirjon qizi**

Aniq va tabiiy fanlar fakulttei Musiqa ta'lim
yo'nalishi 1-kurs MUS-BU-24 guruh talabasi

Shokirxanov Baxtiyorxon Botirxonovich

Ilimiy rahbar

Annotatsiya: Musiqiy faoliyatlarining birinchi turlariga doir vazifalari mazmunini tashkil etadi. Mazkur faoliyatlar ashula aytish, musiqa tinglash, musiqa savodi, raqs elementlarini bajarish, musiqali o'yinlar, qadam tashlash, bolalar cholg'u asboblari jo'r bo'lish musiqa madaniyatini tarkib toptirishda muhim rol o'ynaydi. Birinchi sinfda xor bo'lib qo'shiq kuylash jamoa faoliyati sifatida o'quvchilarni bevosita ishtiroki bilan amalga oshiriladi. Qo'shiq kuylash ham o'ziga yarasha murakkab psixologik va fiziologik jarayondir.

Kalitso'zlar: xor bo'lib qo'shiq kuylash, artikulyatsiya, «Buvijonim», «Baxtierkatoy», «Diloromning qo'shig'i», «Nisholda», ovoz diapazoni, to'g'ri talaffuz qilish, sofintonatsiya, ijobiy his-tuyg'ular, vokal – xorishlari.

Аннотация: Содержание работы составляют задания, относящиеся к первым видам музыкальной деятельности. К таким видам деятельности относятся пение, слушание музыки, музыкальная грамота, исполнение танцевальных элементов, музыкальные игры, шагание, аккомпанемент детям на музыкальных инструментах. Пение в хоре в первом классе осуществляется как коллективная деятельность при непосредственном участии учащихся. Пение само по себе также является сложным психологическим и физиологическим процессом.



Ключевые слова: хоровое пение, артикуляция, «Моя бабушка», «Бахтиеркатай», «Песня Дилором», «Нишолда», вокальный диапазон, правильное произношение, чистая интонация, положительные эмоции, вокально-хоровое творчество.

Abstract: The content of the work is made up of tasks related to the first types of musical activities. These activities include singing, listening to music, musical literacy, performing dance elements, musical games, stepping, and accompanying children on musical instruments. Singing in a choir in the first grade is carried out as a team activity with the direct participation of students. Singing is also a complex psychological and physiological process in itself.

Keywords: choir singing, articulation, "My grandmother", "Bakhtierkatay", "Dilorom's song", "Nisholda", vocal range, correct pronunciation, pure intonation, positive emotions, vocal-choral work.

Qo'shiq kuylashda bosh miyada ginerv hujayralari faol qatnashadi, o'quvchilarda ijobiy his-tuyg'ularni faolligini ta'minlaydi, ko'krak qismi tovush hosil qiluvchi a'zolari artikultatsiya va nafas organlarini faollashtiradi hamda o'quvchilarning samarali ishlashiga sharoit yaratadi. Boshlang'ich sinflarda qo'shiq o'rgatish uchun avval shu qo'shiq tinglanadi, so'ng qo'shiq o'rgatish metodi asosida o'rgatiladi.

Qo'shiq o'rgatish metodi quyidagicha:

1. Qo'shiq haqida o'qituvchining qisqacha kirish so'zi (qo'shiq mualliflari haqida, asarning tarixiy yoki tarbiyaviy ahamiyati haqida qisqa hikoya qilish, shu asarga doir qiziqarli hayotiy suhbat o'tkazish varasmlar ko'rsatish).
2. Qo'shiqni o'qituvchi tomonidan to'liq ijro etib berilishi.
3. Qo'shiqni musiqiy xarakteri, uning ifoda vositalari, shakli, janrini o'quvchilar bilan birgalikda aniqlash.
4. Qo'shiqni musiqiy jummalarga bo'lib o'rgatish.



5. Qo'shiqni ijro sifatlari ustida ishlash (nafas, sof intonatsiya, talaffuz, dinamik belgilar asosida ifodali kuylash).

6. Taassurotlari yuzasidan qisqacha suhbat o'tkazish (savol-javob) ko'rgazmali materiallar asosida



Bunga misol qilib darslikdagi quyidagi asarlarni aytishimiz mumkin:

D. Omonullayev musiqasi, «Buvijonim» — N. Ro'zimuhammedov she'ri; «Baxtli erkaktoy» — T. Toshmatov musiqasi, T. Ilxomov she'ri; «Diloromning qo'shig'i» — D. Omonullayev musiqasi, N. Muhammad she'ri; «Nisholda» — D. Omonullayev musiqasi, R. Tolipov she'ri.

Birinchi sinfdan boshlab o'quvchilarning ovoz diapazonini aniqlash va kengaytirishga alohida e'tibor berish lozim. Birinchi sinfdan o'quvchilarning ovoz diapazoni (DO1 – Lya1), keyinchalik esa ularning ovoz diapazoni kengayib, o'quv yili oxirlarida (DO1 – DO2) gacha ham bo'lishi mumkin. Qo'shiqlarni o'quvchilarga ularning musiqiy qobiliyatlari, musiqa o'quvi, xotirasi, talaffuziga qarab tanlab berish lozim. Qo'shiqlarning differensial guruhlariga bo'lib o'rgatilishi dars samaradorligini oshiradi.



Musika o'quvi bo'sh bo'lgan o'quvchilarning qiziqishi va musiqiy qobiliyatini yanada o'stirish uchun o'qituvchilar ularni uch guruhga bo'lib o'tkazishlari lozim. Musika o'quvi bo'sh bo'lgan bolalar har tomondan jarangdor ovozlarni eshitib, ularga taqlid qilib chiroyli, sof intonatsiyada kuylashga harakat qiladilar. Bu yoshdagi o'quvchilarning ovozi o'zlariga xos, juda mayin va yoqimli tembrga ega bo'ladi. O'tirib va turib kuylaganda gavgani to'g'ri tutish, nafasni so'z o'rtasida olmaslik uchun rejaga solish, unli va undosh tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, sof intonatsiya ustida muntazam ish olib borish lozim. Bolalar ovozini parvarish qilish tavsiya etiladi. Ovoz sozlashni prima tovushlardan (mi1, fa1, sol1) boshlab, yelkani ko'tarmasdan nafas olishga ahamiyat berish qo'shiq kuylash samaradorligini oshiradi.

Musika tinglash — darsning boshidan oxirigacha amalga oshiriladigan faoliyat turidir. Agar bolalar sinfga musika sadolari ostida kirsalar, demak ular musiqani idrok etib kiradilar.



Qo'shiq aytsalar, uni avval eshitib, idrok etib, so'ng o'rganib kuylaydilar. Raqsga tushganda ham, musika tinglab, uning badiiy ifodasini raqs harakatlari bilan



tasvirlaydilar. Musiqa tinglash doirasida asarlar shakl va janr jihatidan xilma-xil bo'lmog'i lozim. Aynan musiqa tinglash vositasida bolalar turli o'zbek xalq cholg'u sozlari, o'zbek xalq musiqasidan namunalar («Chertmak», «Dutor bayoti», «Alla», «Dilxiroj») kabi asarlar bilan, bolalar kompozitorlari va bastakorlar hayoti va ijodi, milliy musiqamiz an'analari, kuy va qo'shiqlar bilan tanishadilar. Musiqa o'quvi bo'sh bo'lgan bolalar har tomondan jarangdor ovozlarni eshitib, ularga taqlid qilib, chiroyli, sof intonatsiyada kuylashga harakat qiladilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'z diqqat-e'tiborini uzoq vaqt bir narsaga qaratib tura olmaydilar, juda tez charchab qoladilar. Shuning uchun ham musiqiy madaniyat darslarida musiqiy ijroga ahamiyat berib borish, chapak chalish, qadam tashlash kabi xilma-xil harakatlardan foydalanish zarur. Ayniqsa, bolalar musiqiy cholg'u asboblari (doiracha, bubencha, shiqildoq, marakassa, uchburchak, rumba, barabancha)da jo'r bo'lish va ritmik raqs harakatlarini bajarish, bolalarni faollashtiradi va dars qiziqarli, mazmunli o'tadi. Ikkinchi sinfda vokal – xor ishlariga e'tibor kuchayadi, o'quvchilar ovoziga va cholg'uga tayanib jo'r bo'lib, musiqali ritmik harakatlar bajaradilar.

Bunga «Paxta oy» — F. Nazarov, T. Ilxom she'ri;

«Kichkintoymiz – gijingtoymiz» — P. Mo'min she'ri, K. Kenjayev musiqasi;

«Yangi yilim» — P. Mo'min she'ri, D. Zokirov musiqasi;

«G'ildiragim» — Sh. Yormatov musiqasi, T. Bahromov she'ri kabi qo'shiqlar,

«Chamandagul» — o'zbek xalq kuylari misol bo'la oladi.

Musiqa idrokining asosiy vositasi — musiqa nutqidir.

Musiqa ifoda vositalari: kuy, lad, ritm, registr, tembr, dinamik belgilar musiqa savodiga kiradi. Ularni his etmasdan turib musiqa asarlarini san'at sifatida badiiy va g'oyaviy jihatdan ongli ravishda to'liq idrok etish qiyin. O'quvchilar, shuningdek, o'lchov, takt, takt chizig'i, notalarning joylanishi, pauzalar, kuchli va kuchsiz hissalar, janrlar haqida bilimlarga ega bo'lishlari, kuy – qo'shiqlarni ongli ravishda o'zlashtirishga musiqa savodidan quyidagi bilim va malakalar shakllanib, amalda bajarilishi lozim:

1. Kuylardagi ritmik sxemalarni bo'g'inli so'zlar bilan kuylash (lya, du, da, mo, mi).
2. Kuchli va kuchsiz hissalarini aniqlash va ularni his etib kuylash.



3. Chapak va cholgʻu asboblarda chalib kuyga ritmik joʻr boʻlish.



4. Marsh varaqlar xarakterini ifodalash.

5. Lad haqida bilimlarni mustahkamlash.

Uchinchi sinf oʻquvchilari oʻzlarining psixologik-fiziologik xarakteriga koʻra 1–2-sinflardan ancha farq qiladi. Ularning diqqat-eʼtibori turgʻun, xotirasi kuchli, ovoz apparatlari shakllangan, nutqi ravon, vokal-xor malakalariga, musiqa haqida bilimga ega boʻladilar. Uchinchi sinf oʻquvchilari ovoz diapazoni do1 – mi2. Shunga qaramasdan, darsning har bir elementi tajribalarga asoslanib tushuntirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1) Nurmatov H.N. Musiqa. 1–3-sinf Darslik. Gʻ. Gʻulom nashriyoti. T., 2016.
- 2) Mansurov, D. Karimova. Musiqa. 5-sinf Darslik. Gʻ. Gʻulom nashriyoti. T., 2020.
- 3) G. Sharipova. Musiqa va uni oʻqitish metodikasi. Oʻquv qoʻllanma. T., 2008.



- 4) D.A. Karimova. Musiqa o‘qitish texnologiyalari va loyihalash. Darslik. T., Lesson Press nashriyoti, 2021.
- 5) G. Sharipova. Musiqa metodikasi. – T.: “O‘zbekiston faylasuflar” nashriyoti, 2012.
- 6) X. Boymirzayev va boshqalar. Musiqa o‘rganish metodikasi. – T.: “O‘qituvchi”.
- 7) G.M. Sharipova. Boshlang‘ich sinflarda musiqa o‘qitish uchun metodik qo‘llanma. – T.: RTM nashriyoti, 2001.
- 8) Shokirkhanov Bakhtiyorkhon Botirkhanovich. “The Structure of Kashkar Rubab, And Methods of Their Execution.” Central Asian Journal of Arts and Design, 5(1), 2024, 19–22.
- 9) Akhmedov Bakhodir Sayfiddinovich. “Traditional Professional Music – Historical and Performing Traditions of Ashula and Big Ashula Genre.”
- 10) Akhmedov B. (2023). The First Formation Processes of Uzbek Vocal Performance. Pedagogika i psixologiya v sovremennom mire: teoreticheskiye i prakticheskiye issledovaniya, 2(8), 126–128.
- 11) Sayfiddinovich A.B. (2023). Aesthetic Education to Students in Music Classes of General Secondary Schools.
- 12) Axmedov Baxodirxon Sayfiddinovich. Dirijorlik fani haqida // ReFocus. 2025. №Special Issue 3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/dirijorlik-fani-haqida> (murojaat sanasi: 10.06.2025).
- 13) Shokirkhanov B., Yusubjonova Omina. “The Role of the ‘Dutor’ Instrument in the Integration of Education and Culture.” Academia Repository, 5(1), 2024, 237–241.
- 14) Shokirkhanov Bakhtiyorkhon Botirkhanovich. “The Role of Music Clubs in Leading the Young Generation to Maturity.” Academia Repository, 5(1), 2024, 242–245.